



HARBIY PEDAGOGIK TA'LIMNI TASHKILLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI VA O'ZIGA HOSLIGI

Haydarov Jamol G'ulommamatovich

O'zbekiston Respublikasi harbiy aviatsiya Instituti Taktika va maxsus
fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
podpolkovnik
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15043143>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Mart 2025 yil
Ma'qullandi: 15-Mart 2025 yil
Nashr qilindi: 18-Mart 2025 yil

KEYWORDS

kursant, harbiy ta'lif, strategiya, jangovar
harakatlar, jang, Qurolli Kuchlar, Nizom.

ABSTRACT

ushbu maqolada zamonaviy ta'lif jarayonini harbiy pedagogikani takillashtirishning dolzarbliji va o'ziga hosligi to'g'risida fikr yuritiladi.



Armiya o'ziga xos ijtimoiy sifatida paydo bo'lganidan boshlab, harbiy faoliyatning eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan harbiy xizmatchilarni o'qitish va tarbiyalash harbiy faoliyatning asosiy vazifalaridir biri bo'lib qolmoqda. Aslida, bu amaliy harbiy pedagogikaning ko'p qirrali zaruriy va majburiy jixatlaridan biri bo'lib, uning zamirida jangchilarni jangovar harakatlarni muvaffaqiyatli olib borishga tayyorlashdan iborat ekanligini bilan alohida o'rinn egallab kelgan.

Harbiy mashg'ulotlarni olib borishdagi ta'lif berish ham xuddi boshqa soha fanlaridagi kabi ta'lif jarayoni (mashg'ulot rahbarining faoliyati) va o'zlashtirish jarayoni (kursant, faoliyati)dan iborat bo'ladi.

Talaba kursantlarning o'zlashtirish jarayonidagi faoliyatlarini bilim, ko'nikma va malakalarni egallahdan iborat bo'lib, ta'lif jarayoni esa tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'langan holda amalga oshiriladi.

Harbiy ta'lif berish bo'yicha pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo'llashda mashg'ulotlarning o'ziga xos tomonlarini hisobga olinishi muhim shartlardan biri xisoblanadi.

Bundan buyon bu boradagi ishlarni rivojlantirish va mavjud ta'lif tizimini tubdan isloq qilish, harbiy kadrlar tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlarni ta'lifni texnologiyalashtirish nuqtai-nazaridan yanada takomillashtirish soha mutaxassislarining oldidagi muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib qolishi tabiiydir.

Harbiy mashg'ulotlar nazariy, amaliy, ko'rgazmali, taktik, taktik saf, nazorat shakllarida o'qitilishi va ularning aksariyat qismi amaliy bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari Nizomlarining talablari asosida olib borilishi, otish tayyorgarliklari bo'yicha mashg'ulotlari o'quv va jangovor qurollar bilan ishslash bo'yicha ko'rsatma va yo'riqnomalarga amal qilinishi, mashg'ulotlarning aksariyat qismi, o'quv-moddiy baza bilan chambarchas bog'liqligi, harbiy ta'lif mashg'ulotlarining o'ziga xos tomonlari bo'lib hisoblanadi.

Bunday xulosa harbiy ta'lif mashg'ulotlarda yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni qo'llanishi kutilganidek yaxshi samara bermaydi degani emas.

Ta'kidlash joizki, har bir mashg'ulot rahbari tavsiya etilgan texnologiyalarni samara beradiganini tanlay olishi, o'r ganuvchilarining faolligini oshirishda ta'lif shakllarining samarali va tejamlilagini qo'llay olishi hamda mashg'ulot rahbarining pedagogik mahorati, ayniqsa, mashg'ulotga tayyorgarlik jarayoniga ijodiy yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada mashg'ulot rahbarining harbiycha mashg'ulotlarning o'ziga hos prinsiplaridan og'ishmagan holda o'z faoliyatiga tanqidiy qarashi, ta'lif berishning ilg'or yangi uslublarini qo'llashda orttirilgan tajribalarga tayanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Harbiy ta'lifni o'qitilishi jarayoni o'ziga hos mantiqiy ketma-ketlik bilan aniq maqsadga yo'naltirish bilan amalga oshiriladi. Ketma-ketlik quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi ko'zda tutiladi:

mashg'ulotning maqsadidan kelib chiqib, kursantlar oldiga topshiriq qo'yish;

mashg'ulotni o'tkazilishida kursantlarda bilimga bo'lgan qiziqishni hosil qilishga yo'naltirish;

mashg'ulot davomida kursantlar tomonidan yangi materialni qabul qilinishining murakkab bo'lmanan usullaridan foydalanish;

qabul qilingan yangi materialni tahlil qilish, umumlashtirish;

ilmiy tushunchalarni hosil qilish;

egallagan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish;

malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;

bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash;

kursantlar egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish;

ta'lif berish natijalarini tahlil qilish.

Harbiy ta'lifni tashkillashtirishda bu ketma-ketlikda o'qitishni, harbiy pedagogik jarayoni bir-biri bilan uzbek bog'liq bo'lgan harbiy tayyorgarlik va tarbiyani o'z ichiga olgan murakkab ijtimoiy hodisadir.

Harbiy tayyorgarlik deganda askarlarga amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan harbiy bilim, mahorat va ko'nikmalarni berishning uyushgan va maqsadli jarayoni, shuningdek jangovar harakatlarni o'tkazish (jangovar vazifalarni bajarish) uchun harbiy jamoalarni tayyorlash tushuniladi.

Harbiy pedagogik jarayonning mohiyati komandirlarning zamonaviy urush sharoitida jangovar operatsiyalarni muvaffaqiyatli o'tkazish (jangovar vazifalarni bajarish) uchun harbiy mutaxassislar, bo'linmalar va jamoalarni tayyorlash bo'yicha maqsadli tashkiliy va ma'rifiy faoliyatidan iborat. Harbiy yo'nalish, askarlarning o'ziga xos mehnat va yashash sharoitlari harbiy pedagogik jarayonning mazmuni, metodologiyasiga qat'iy ta'sir qiladi, uning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Harbiy pedagogik jarayonning dolzarbligi va muhim xususiyati shundan iboratki, u harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyati bilan ajralmas birlikda amalga oshiriladi va aniq amaliy xususiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Harbiy xizmatchilar tomonidan o'quv jarayonida olingan bilim, mahorat va ko'nikmalar jangovar harakatlarda jangovar topshiriqlarni bajarishda qo'llaniladi. Bu, bir tomondan, harbiy xizmatchilardan yuqori bilim, ko'nikma, mahorat

va qobiliyatlarini talab qiladi, boshqa tomondan - jangovar va safarbarlik tayyorgarligini mustahkamlash, saqlashga va rivojlantirishga yordam beradi.

Harbiy pedagogik jarayonning mazmuni va vazifalari.

Harbiy pedagogik jarayon-bu harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarni jangovar vazifalarni bajarish uchun qo'llanilashga mo'ljallangan harakatlarga tayyorlash bo'yicha nafaqat komandirlar, baki, o'quv tuzilmalari mutaxassislarning maqsadli, uyushgan ta'lim faoliyati tizimidir.

Tinchlik davrida, harbiy-pedagogik jarayonning asosiy maqsadi, harbiy xizmatchilar va bo'linmalarning yuqori jangovar tayyorgarligini saqlash, ularning jangovar tayyorgarlik vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish uchun munosib ravishda tayyorlashdan iborat.

O'z mohiyatiga ko'ra, bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining O'zbekiston Respublikasini himoya qilish to'g'risidagi qoidalarida¹, Mudofaa masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilikni va davlat organlarining mamlakatning mudofaa qobiliyatini ishonchli, oqilona yetarilik darajasida mustahkamlash va saqlash zarurligi to'g'risidagi boshqa talablarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy jarayonlarda o'z aksini topgan.

Harbiy-pedagogik jarayonning mazmuni va yo'nalishi Mudofaa doktrinasida, davlatning ichki va tashqi harbiy siyosatida, harbiy ishlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Harbiy-pedagogik jarayonning asosiy maqsadi, harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarning tinchlik va urush davrida Vatanni qurolli tajovusdan himoya qilish uchun o'zlariga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal yetishga har tomonlama tayyorgarligini ta'minlashdan iboratdir. Harbiy xizmatchilarni tayyorlash va o'qitish har bir harbiy xizmatchi va harbiy jamoada yuqori jangovar, axloqiy, psixologik va jismoniy fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlashga va shu asosda jangovar mahoratni, ma'naviy matonatni har qanday sharoitda g'alaba qozonish uchun kuchli iroda bilan birlashtirishga qaratilgan.

Ushbu maqsad harbiy pedagogik jarayonning harbiy xizmatchilarni bir-biri va bo'linma bilan, bo'linmaning boshqa hayotiy faoliyat tizimlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan tarkibiy qismlar to'plami sifatida (jangovar tayyorgarlikni saqlash tizimi, boshqarish va aloqa tizimi, nazorat tizimi va boshqalar.) ishlashini belgilaydi.

Harbiy pedagogik jarayonning tizim sifatida faoliyat olib borishdagi asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- harbiy pedagogik jarayonning vazifalari;
- tarkibiy tuzilma;
- tashkiliy tuzilma;
- ushbu jarayonning sub'ektlari va ob'ektlari.

Harbiy pedagogik jarayonning vazifalari uning maqsadi bilan belgilanadi va unga yerishishga qaratilgan ustuvor vazifalarga quyidagilar kiradi:

- 1) harbiy xizmatchini fuqaro va professional jangchi sifatida maqsadli shakllantirish;
- 2) harbiy xizmatchilarni har qanday vaziyatda samarali amaliy harakatlarni ta'minlaydigan harbiy, ijtimoiy, texnik, kasbiy bilim va faoliyat fazilatlari tizimi bilan qurollantirish;

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 154 va 155-moddalari.

3) har bir harbiy xizmatchining ma'naviy kuchlari, intellektual va jismoniy fazilatlarini maqsadli rivojlanishini ta'minlash;

4) shaxsiy tarkibda hissiy va ixtiyoriy barqarorlikni rivojlantirish, harbiy xizmatdagi qiyinchiliklarni yengishga, zamonaviy jangovar muhitda harakat qilishga psixologik tayyorlash;

5) jangovar hisob-kitoblarni, bo'linmalar va jamoalarni jangovar vazifalarni bajarishda bir butun sifatida harakatlanishini amalga oshirish;

6) harbiy jamoalarda qonuniy tartibni saqlash, harbiy xizmatchilarning bir-biriga ishonchi, o'zaro yordam, harbiy birodarlik, harbiy o'rtoqlik va do'stlik munosabatlarini shakllantirish.

Harbiy pedagogik jarayonning tarkibiy tuzilishi uning tarkibiy qismlari (funksiyalari) bilan ifodalanadi:

- tarbiya;
- ta'lism;
- rivojlanish;
- psixologik tayyorgarlik;
- o'z-o'zini tarbiyalash;
- o'z-o'zini rivojlanish.

Tashkiliy harbiy-pedagogik jarayonga quyidagilar kiradi:

- har xil turdag'i jangovar, jamoat-davlat va boshqa turdag'i mashg'ulotlar, shu jumladan, asosan mashg'ulotlar davomida amalga oshiriladigan tadbirlar;
- xizmat va jangovar, ijtimoiy va boshqa faoliyatning pedagogik jihatlari;
- harbiy xizmatchining pedagogik ta'limi;
- ma'naviy-ma'rifiy, ahloqiy-ruxiy tayyorgarligi va ommaviy sport ishlari.

Harbiy pedagogik jarayonning vazifalari uning sub'ektlari va ob'ektlarining o'zaro bog'liq faoliyatini belgilaydi.

Harbiy pedagogik jarayonning sub'ektlari komandirlar, shtablar, ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, yo'riqchi-muttaxassislar, jangovar, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik yetakchilari, jangovar ekipajlarning yetakchi mutaxassislari, kichik komandirlar, serjantlar hisoblanadi.

Harbiy-pedagogik jarayonni tashkil etishda hal qiluvchi rol bo'linma komandiriga tegishli. Shaxsiy tarkibning bevosita rahbari bo'lib, u o'z hayoti va faoliyatining barcha jabhalari va shunga mos ravishda harbiy pedagogik jarayonning holati va sifati uchun javobgardir.

Harbiy-pedagogik jarayonning ob'ektlari (an'anaviy ma'noda) barcha harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalardir. Shuni ta'kidlash kerakki, sub'ekt - sub'ektiv yondashuvi nuqtai nazaridan barcha harbiy bo'linmalar, o'quv muassasalari sub'ektlar, harbiy pedagogik jarayonning faol ishtirokchilari hisoblanadi. Harbiy xizmat sharoitida harbiy jamoa kabi pedagogik ta'sir ob'ekti alohida ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan komandirlar har qanday jamoani o'rganishlari va o'z kuchlarini harbiy-pedagogik jarayon vazifalarini hal qilishga mohirona yo'naltirishlari kerak.

Harbiy-pedagogik jarayonni tashkillashtirishda ta'lism va tarbiyaning texnik vositalaridan foydalanib mashg'ulotlarni o'tkazish shakllari va usullari.

Ta'lim shakllari-bu o'quv jarayonining tashkiliy tomoni bo'lib, u amalga oshiriladigan sharoitlarni aks ettiradi.

O'qitish usullari talabalarning tarkibi va guruuhlarini, darsning (mashg'ulotning) tuzilishini, uni o'tkazish joyi va davomiyligini, o'qituvchilar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Ular o'quv jarayonining tashkiliy tomonini aks ettiradi va belgilangan tartibda va ma'lum bir tartibda amalga oshiriladigan ofitserlar (o'qituvchilar) va o'qitilgan harbiy xizmatchilarning kelishilgan faoliyatining tashqi ifodasini belgilaydi.

Ta'lim shakllari umumiylar va mutaxasislik bo'yicha bo'linadi.

Ta'limning umumiylar shakllari qo'yidagilar bilan tasniflanadi:

- kadrlar tayyorlash yo'nalishi bo'yicha - nazariy va amaliy ta'lim shakli;
- talabalarni tashkil etish bo'yicha - jamoaviy, guruhi va individual ta'lim shakli;
- mashg'ulot o'tish joyida bo'yicha - xonalarda va maxsus maydonlardagi ta'lim shakli;
- o'quv jarayoni bo'yicha - o'quv-rejasiga asosan, xizmat-rejasiga asosan, xizmatdan tashqari rejaga asosan ta'lim shakli;
- o'quv jarayoni tashkillashtirish bo'yicha - o'qitish uchun-rejalahtirilgan, xizmat ko'rsatish bo'yicha rejalahtirilgan va faoliyatdan tashqari rejalahtirilgan ta'lim shakli.

Harbiy pedagogikada harbiy tayyorgarlik shakllarining quyidagi tasnifi ishlab chiqilgan:

- o'quv-rejaviy;
- xizmat-rejaviy;
- xizmatdan tashqari;
- maxsus va hokazo.

O'quv-rejaviy mashg'ulot shakllariga nazariy va amaliy mashg'ulotlar, jangovar o'q otish, qo'mondonlik va shtab mashqlari va boshqalar kiradi. Bu bo'linma (gurux) tarkibini doimiy ravishda jangovar tayyorgarlini saqlab turishga yo'naltirilgan bo'lib, harbiy xizmatchilarni istalga vaqtida jangovar vazifalarni bajarishga jalb qilinishi va ushbu vazifalarni muvofaqiyatli bajarilishini ta'minlashga asos bo'ladi.

Xizmat-rejaviy mashg'ulot shakllari bo'linmada park xo'jalik va xizmat ko'rsatish kunlari komandirlar tomonidan shaxsan tashkillashtiriladi.

Xizmatdan tashqari o'qitish shakllariga odatda turli xil harbiy tajriba maktablari, harbiy to'garaklar, musobaqalar, tanlovlari va boshqalar kiradi.

Maxsus o'qitishning o'ziga xos shakllariga Qurolli kuchlarining har bir qo'shin turiga xos bo'lgan maxsus maydonlar, o'quv auditoriyalari va simulyatsiya xonalari kiradi, masalan, aviatsiya bo'linmalarida - har xil turdag'i parvoz mashg'ulotlarini tashkillashtirish va trenajorlarda ushbu parvozlarni amalga oshirish.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'qitishning yagona shakli (mashg'ulot turi) xususiy ta'lim vazifalarini hal qilishda yetarli natijalarni bermaydi. Mashg'ulotlarni tashkillashtirish va o'tkazilinishida, mashg'ulot qatnashchilari tarkibi va mutaxassisligi inobatga olib, mashg'ulot o'tkazish joyi va mashg'ulot raxbarini tanlash harbiy xizmatchilarni kasbiy shakllantirishning maqsadiga erishishga imkon beradi².

O'quv moddiy-texnik baza Qurolli kuchlar va maxsus kuchlar bo'linmalari qo'shinchilarning (kuchlarning) jangovar tayyorgarligi ehtiyojlari, ularidan jangovar xakatlarda foydalanish xususiyatlaridan kelib chiqib, Mudofaa vaziri, okrug qo'mondonlari va qism komandirlarining

2 Xasanov M Dala-o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va mashg'ulotlar o'tkazish uslubiyoti.

buyruqlari talablariga muvofiq yaratiladi va takomillashtirilidi. U barcha o'quv fanlari bo'yicha jangovar tayyorgarlik vazifalarini sifatli bajarilishini, qo'shinlarni yuqori darajadagi tayyorgarligiga erishishini va xodimlarning jismoniy tayyorgarligini, boshqaruv organlarini muvofiqlashtirishni ta'minlashi kerak.

Harbiy pedagogikaning o'ziga hos jixatlaridan biri, bu harbiy ta'limotni o'tkazilishdagi turli o'quv xonalari va o'quv moddiy-texnik bazalarining mavjudligi bilan belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan o'quv xonalari – asason, alohida maxsus o'quv fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan bo'lib, ixtisosligi bo'yicha tor doiradagi mutaxassislarni tayyorlashda mashg'ulotlar o'tish uchun mo'ljallangan.

Xarakatlanuvchi o'quv moddiy-texnik baza³ – dala sharoitida bo'limlarning shaxsiy tarkibi bilan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkillashtirish va o'tkazishga mo'ljallangan. Uning tarkibi, miqdori, to'liqligi bo'linma komandiri qarori bilan bo'linmalarining jangovar tayyorgarligining o'ziga xos xususiyatlari va ularning jangovar maqsadi asosida belgilanadi. U shaxsiy tarkib soniga qarab, teng bo'lgan har bir bo'linmada yaratiladi.

Qisqartirilgan tarkibli harbiy bo'linmalarida masho'ulotlarni olib borish uchun ko'chma o'quv moddiy-texnik bazasi to'plamlari shakllantiriladi. Jangovar tayyorgarlik jarayonida mashg'ulotlar o'tkazish uchun ushbu ko'chma o'quv moddiy-texnik bazasida rejalar, ko'rsatmalar, zarur o'quv va uslubiy adabiyotlarni bilan jixozlanadi.

Ko'chma o'quv moddiy-texnik bazasini ishlab chiqarish tartibi, mazmuni va to'liqligi harbiy bo'linma komandiri tomonidan belgilanadi. U Mudofaa Vaziri, Qurolli kuchlar turlarining qo'mondonlarining buyruqlarida belgilangan talablarga muvofiq, o'quv-tarbiyaviy jarayonni to'g'ri tashkillashtirishni ta'minlashga mo'ljallangan o'quv adabiyotlar, mashg'ulotlarni olib borishni ta'minlaydigan kerakli asbob-anjomlar va asboblaridan foydalangan holda ixtirochilik va ratsionalizatsiya ishlari doirasida bo'linmalar tomonidan yaratiladi.

Xulosa sifatida shuni takdash joizki, harbiy pedagogik jarayonda tashkillashtiriladigan o'quv-tarbiyaviy jarayon zamonaviy ta'lim jarayonidan o'zining hosligi bilan tubdan farq qiladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ta'lim-tarbiya jarayoni va o'quv-moddiy bazaning shakllantirilishi va o'quv-tarbiyaviy jarayonda qo'llanilishi faqatgina harbiy pedagogikaga mosligi va hosligi bilan umumiy pedagogikadan ajralib turadi.

Harbiy pedagogik jarayonni bunday o'ziga hos jixatlarini chuqr egallagan va maqsadli qo'llay oladigan pedagog zamon talabiga mos, yetuk dunyoviy va harbiy bilimlarga ega mutaxassisni shakllantira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 154 va 155-moddalari.
2. Xasanov M Dala-o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish
3. va mashg'ulotlar o'tkazish uslubiyoti.
4. Добродон Ye.B. Современная военная педагогика: проблемы и перспективы / Вестник Донецкого педагогического института, 2018. – С.122.
5. Кибер Ленинка. Военно-педагогический опыт как важнейший компонент деятельности преподавателя ведомственного вуза в условиях цифровой трансформации образования А.С. Вершков.

³ Xasanov M CHQBT bo'yicha o'quv – moddiy bazasi va ularga qo'yiladigan talablar.

7. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Special issue -1, №01 (2020).
8. D. Shirli Военная психология и педагогика / Под ред. В. Ф. Кулакова. М.: Совершенство, 1998. 140 с.
9. Tursunov Abdumomin Science and innovation international scientific journal 2022 № 3.

